

T.VULF ASARLARIDA MODERNISTIK USLUB BADIY IFODASI

O.X.Ganiyeva

f.f.f.d., dotsent

Buxoro davlat universiteti

o.x.ganieva@buxdu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14499974>

Annotatsiya: AQSH adabiyotida o'zining yuksak g'oyaviyligi hamda mukammal psixologik teranligi bilan tanilgan T.Vulfning ijod namunalari bo'lmish hikoya hamda romanlari yozuvchining o'ziga xos individual uslubi orqali yaratilgan. Uning nasriy boyligida modernizm badiiy elementlari o'ziga xos metod bilan mohirona tarzda bayon etilgan. Mazkur maqolada biz yozuchi asarlaridagi mana shu uning hikoyalar tahlili toritamiz.

Kalit so'zlar: Avtobiografik yondashuv, epik tasvir, modernistik munosabat, syujet, lirika, nasriy qurilma.

Yozuvchi ijodining dastlabki yillarida yaratilgan hikoyalar kuzatilsa, ularning har biri katta nasriy qurilmaning bo'laklari ekani, turli mavzu yoritilsa ham, bir g'oyaviy maqsad birlashtirishi ayon bo'ladi.

1935-36 yillardagi hikoyalari, aksariyati "Of Time and the River" romani uchun mashqlar bo'lib, keskin o'zgarishlarni namoyish etadi: ular hajman qisqaroq, bitta voqeaga qaratilgan va ohang hamda nuqtai nazardan sezilarli darajada farq qiladi. Ayniqsa, turli birinchi shaxs roviylardan foydalanishi, shahar hayoti tasviriga keng o'rin ajratilishi, ular orasida kechadigan dialoglar ahamiyat kasb etishi diqqatga sazovordir. 1930-yillarda yaratilgan hikoyalar ko'pincha T. Vulfning **nuqtai nazar (point of view)** bilan bog'liq tajribalarini namoyish etib, bu xususiyat ham uning kichik nasri poetikasidagi muhim elementlardan biri sanaladi.

1937-38-yillarga kelib, T. Vulf hikoyachiligida jiddiy o'zgarishlar sezildi, endi muallifning kichik nasriy namunalari ancha uzunroq, asosan epik bayonga urg'u kuchaydi. Bu asarlarda qahramonlarning ichki olami teran tasvirlanib, ulardagi ruhiy ziddiyatlar yoritildi, mavzuni mustahkamlaydigan tasvirlarga keng o'rin ajratilib, ziddiyat va uning yechimiga muallif alohida e'tibor qaratdi. Bu hikoyalar sirasiga "The Lost Boy", "I Have a Thing to Tell you" kabi asarlarni kiritish mumkin.

T. Vulf hikoyachiligida ijodining so'nggi davrlarida ko'proq nasriy bayonga e'tibor qaratish, dastlabki davrlarda kuzatilgan uzun lirik ohang bilan yo'g'rilgan tasvirlar, yoshlikni ifodalagan jo'shqin parchalar ancha kuzatilmaydi. T. Vulfni hassos nosir bo'lib shakllangani, epik tasvirda juda ehtiyotkor va mulohazakor, har bir harakat, voqea yoki jumla mavzuning ochib berilishiga xizmat qilishi, hatto oldindan belgilab berishi, qahramonlararo konfliktning unumli ishlatilishi, personajlar ham ancha funksionalroq bo'lgani, asarning hamma badiiy komponentlari kitobxonga asar mohiyatini anglashga yordam berishi kuzatiladi.

T. Vulf kichik nasrida modernizm ustunligi diqqatni tortadi. Adib hikoyalarida qator o'zgarishlarni amalga oshirdiki, mazkur tajribalar uning katta nasriy janrda yaratilgan romanlari uchun zamin bo'lib xizmat qilgani yillar o'tib oydinlashdi. Quyidagi jihatlarni T. Vulf kichik nasrida ustuvorlik qilganini tadqiqot jarayonida kuzatdik:



T. Vulf hikoyachiligida kuzatilgan mazkur tendensiyalar tahlilini keltirishdan avval eng asosiy individual hamda spetsifik jihat bu avtobiografik yondashuv ekanini, dastlab shu xususiyatni tadqiq etishga, so'ngra ustuvor qirralarni tahlil qilishga chog'landik.

J. Bentz "A Critical Analysis of the Short Fiction of Thomas Wolfe" dissertasiyasida muallifning yozuvchi sifatida shakllanish bosqichlari, hikoya janri nazariyasi hamda janriy ta'rifi, muallif kichik nasr namunalarida avtobiografik yondashuv, satiradan unumli foydalanilishi, adibning hikoya janriga modernistik munosabati, syujetli hikoyalar, lirik hikoyalar, epifaniyanialar, vaqt mavzusiga bag'ishlangan hikoyalari, yozuvchi ijodida Janub mavzusi singari jihatlarni tahlil qiladi. XX AQSH hikoyachiligi takomilida modernizm an'analarining rivojini qayd etgan adabiyotshunos bu davrda yozuvchilar tradision usuldan og'ib, novatorona tajribalar asosida kichik nasriy asarlar yaratishganini ta'kidlaydi¹. Yangilik shaklda emas, keyinchalik mazmunda ham ro'yi-rost aks etdi. Hikoyalardagi har bir element umumiy g'oya ro'yobiga xizmat qildi, ko'proq ruhiyat olamiga kirib borildi hamda ritorik strategiya, parallel tasvir, takror, birinchi shaxs tilidan rivoya ustuvorlik kasb etdi. "No Cure for It" hamda "Return" hikoyasi keltirilgan mazkur fikrlarimizni yaqqol isboti bo'la oladigan asarlardir.

"Return" hamda "No Cure for it" hikoyalari ham T. Vulf ijodining so'nggi bosqichida yozilgan asarlar bo'lib, unda muallif o'z dunyosini, undagi tashvishlarini qahramonlar hayoti orqali tasvirlab beradi. mazkur hikoyalarning aniq yozilgan sanasi haqida ma'lumotlar uchramaydi, ammo yozuvchi betoblighi, so'nggi "The Hills Beyond" romanini tugata olmagani sababli, adib vafotidan keyin tiriklik chog'ida ham birga ishlagan E. Osvell (Edward Aswell) ma'lum qismini tugallanmagan roman sifatida, ayrim qismlarini tahrirlab, hikoyalar shaklida chop ettiradi. "Return" hamda "No Cure for It" hikoyalari muallifning 1930-yillarda yozilgan nasriy asarlariga xos xususiyatlarga ega bo'lib, asosan adibning ijodiga tegishli poetic qirra –

¹ Bentz J.M. A Critical Analysis of the Short Fiction of Thomas Wolfe. A Thesis In Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy, 1991. – P. 134.

ya'ni avtobiografik elementlarga boyligi bilan ajralib turadi. Har ikkala kichik nasr namunasi F. E. Skipp tomonidan nashr qilingan va J. Diki so'zboshi bergan "The Complete Short Stories of Thomas Wolfe" (1989) to'plamidan olindi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, T.Vulf o'z zamondoshlari orasida iste'dotli yozuvchi sifatida butun umri davomida yozgan hikoya va romanlarining o'ziga xos mazmundorligi va tematik qamrov doirasining kengligi bilan ajralib turgan. Yozuvchining ayniqsa, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarni psixologik tahlil etish qobiliyati uning asarlarini yanada o'qimishli va butun umrga tatiguli etdi. Uning yuqorida tahlilga tortilgan "The Lost Boy", "I Have a Thing to Tell you" asarlari shular jumlasidandir. "Return" hamda "No Cure for It" hikoyalarida esa muallif o'zi ko'rgan va kechirganlari haqida batafsil bayon etadi. Bunda u avtobiografik uslubning nozik elementlaridan mohirona foydalanadi. Xullas, T.Vulf modernist yozuvchi sifatida yaratgan barcha asarlari shu davr adabiyotining eng dolzarb va asosiy muammolarini noodatiy va o'ziga xos uslub bilan hikoya qiladi.

References:

1. Jahon adiblari adabiyot haqida. (Ozod Sharafiddinov tarjimalari). – T.: Ma'naviyat, 2010. – B. 179.
2. Benthz J. A Critical analysis of the short fiction of Thomas Wolfe. – A thesis submitted to the Faculty of Purdue University in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy, 1991. – P. 269.
3. Holman. H. C. Thomas Wolfe. – USA: University of Minnesota, 1960. – P. 48.
4. Sadullayev F. B. Henry Jeyms va Tomas Vulf romanlarida inson ruhiyati tasviri. – B.: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024. – B. 116.
5. Boyer James D. The Short Fiction of Thomas Wolfe. Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy, 1979. – P. 205.
6. The Complete Short Stories of Thomas Wolfe. Edited by Francis E. Skipp. – USA: Collier Books, 1989. –P. 660.
7. Watkins P. D. The Short Stories of Thomas Wolfe. - A dissertation in the Department of English submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy at New York University, 1979. – P. 320.